

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI**

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

Ro'yxatga olindi:  
BD- 60230100 – 1.15.  
“ ” 2024-yil



**O'ZBEK DIALEKTOLOGIYASI**

**FANINING  
O'QUV DASTURI**

Bilim sohasi: 200000 – San'at va gumanitar fanlar  
Ta'lim sohasi: 230000 – Tillar  
Ta'lim yo'nalishi: 60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili)

Fan/modul kodi <b>O'D207</b>	<b>O'quv yili 2024-2025</b>	Semestr <b>4</b>	<b>ECTS - Kreditlar 6</b>					
Fan/modul turi <b>Majburiy</b>	<b>Ta'lim tili O'zbek</b>		<b>Haftadagi dars soatlari 6</b>					
1.	<b>Fanning nomi</b>	<b>Auditoriya mashg'ulotlari (soat)</b>	<b>Mustaqil ta'lim (soat)</b>	<b>Jami yuklama (soat)</b>				
	<b>O'ZBEK DIALEKTOLOGIYASI</b>	90	90	180				
<b>I. MODUL TAVSIFI</b>								
2.	<p><b>"O'zbek dialektologiyasi"</b> fanidan 30 soat ma'ruza, 30 soat amaliy, 30 soat seminar mashg'ulot va 90 soat mustaqil ish rejalarshirilgan. Matnlarni tayyorlashda o'zbek tilida chop etilgan darslik va qo'llanmalar asos qilib olindi. Ma'ruzalar matni o'quv qo'llanmalarga nisbatan ancha qisqa, ammo masalalar lo'nda qilib keltirilgan. U yoki bu masala yuzasidan kengroq ma'lumot olish uchun albatta darsliklarga murojaat qilish shart.</p> <p>Buning uchun har bir ma'ruza oxirida mustaqil o'qish uchun savollar keltirilgan. Ma'ruzalar ketma-ketligi o'qituvchining xohishiga ko'ra almashtirishi mumkin. Ma'ruzalar matnida talabalar o'zbek dialektologiyasi bo'yicha hozirda ma'lum bo'lgan ilmiy adabiyotlar bilan tanishib qolmay, balki hali yechilmagan, hal qilinishi zarur bo'lgan muammolar bilan ham tanishadilar va bu o'z navbatida ushbu sohaga yangi, yosh talantlarni kirib kelishiga yo'l ochadi.</p> <p>Mazkur modul "<b>O'zbek dialektologiyasi</b>" fanning shakllanishi tarixi, uning tuzilmasi, fonetik qonunlar va fonetik jarayonlarning sodir bo'lishi, dialektlardagi fonetik, leksik va grammatic xususiyatlarni, o'zbek lahjalarining o'ziga xosligi, adabiy tilning tayanch dialektlarini aniqlash, areal lingvistikaning o'rganish metodlari, dialektlar tasnifi kabi nazariy va amaliy masalalarni o'rganadi.</p> <p>Modul dasturi fanning maqsadi, o'rganiladigan mavzular, talabalarning ko'nikma va malakasi, o'quv mashg'ulotlari va mustaqil ta'lim hajmi va mazmuni, baholash mezonlari hamda foydalaniладigan adabiyotlar ro'yxatini o'z ichiga oladi.</p> <p>Modul o'zbek tili bakalavriat yo'nalishida umumkasbiy fan sifatida o'qitiladi.</p>							
<b>ILFANNING MAZMUNI</b>								
<p><b>Modulning maqsadi:</b> Talabalarga modulni o'qitishdan maqsad – talabalarga "<b>O'zbek dialektologiyasi</b>" fani bo'yicha bilimlarning nazariy asoslarini, dialektologiya faniga oid asosiy tushunchalar va kategoriyalarni, o'zbek dialektlaridagi fonetik, leksik, grammatic jihatdan farqli va o'xshash jihatlarini</p>								

o'rgatish hamda ularni amaliyotga tadbiq etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat. Talablarni qiyosiy o'rganish va tizimli bilimlarni shakllantirish.

**Modul vazifalari** – nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, dialektlardagi o'ziga xos hodisa va jarayonlarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish, dialektologiya fanining, shuningdek, transikripsiyaning mazmun-mohiyatini bilish, ularga nisbatan shaxsiy munosabatni shakllantirish orqali insonning hayotdagi o'mni va ahamiyatini ochib berish, nazariy va amaliyot sohasidagi zamonaviy, milliy va xorijiy ilmiy ishlasmalarini berishdan iborat.

### **III. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

#### **2.1-mavzu. "O'zbek dialektologiyasi" fanining maqsad va vaifalari.**

Fanning nazariy va amaliy ahamiyati. Dialektologiyaning paydo bo'lishi haqida qisqacha ma'lumot. Til va sheva munosabati. O'zbek shevalarining o'rganishini davrlashtirish.

#### **2.2-mavzu. "O'zbek dialektologiyasi"ning asosiy tushunchalari.**

Sheva, dialekt, lahja tushunchalari definitsiyasi. Til egasi va sheva egasi tushunchasi. Mahalliy va ijtimoiy dialekt. Lahja va idiom. Lahja va til varianti (diasistema). Idiolekt.

#### **2.3-mavzu. O'zbek shevalarining tarixiy oqimi.**

Qarluq, qipchoq va o'g'uz lajhalar. O'zbek shevalarining murakkab tarkibga ega bo'lish sabablari. Shevalarni o'rganish metodlari. "O'zbek dialektologiyasi"ning boshqa fanlar bilan aloqasi.

#### **2.4-mavzu. Transkripsiya va transliteratsiya.**

Transkripsiya. Uning mohiyati. Transkripsiya va transliteratsiya. Transkripsiyaning milliy va xalqaro turlari, ularga asos bo'luchchi alifbolar. Fonetik va fonematik transkripsiya. O'zbek shevalarini yozib olishda qo'llanadigan an'anaviy va yangi transkripsiya, ularning tavsifi. Diakritik belgilari.

#### **2.5-mavzu. O'zbek shevalarining fonetik xususiyatlari.**

Shevalardagi fonema va uning variantlari masalasi. O'zbek shevalaridagi unli va undosh fonemalarning tavsifi. Monoftong, diftong, diftongoid. Undosh tovushlardagi palatalizatsiya va velarizatsiya.

## **2.6-mavzu. O‘zbek shevalarida fonetik xususiyatlari.**

Singarmonizm va uning turlari. Kontrast juft unlilar. Singarmonizmdan chekinish. Umlaut. Unlilarning cho‘ziqligi. Jaranglilik va jarangsizlik. ”Tovush tengligi” qonuni.

## **2.7-mavzu.O‘zbek shevalarida fonetik jarayonlar.**

Assimilatsiya, dissimilatsiya, metateza. Reduksiya, spontan o‘zgarishlar, sandhi, spirantizatsiya, geminatsiya, tovushlar tushishi, orttirilishi. Sinerezis.

## **2.8-mavzu. O‘zbek shevalarining grammatik xususiyatlari.**

O‘zbek shevalarida otga xos belgilar. Grammatik son, kelishik, egalik shakllari. So‘z shakllaridagi affikslarning variantlari va ularning morfologik xususiyatlari.

## **2.9-mavzu. O‘zbek shevalarida fe’llarning xususiyatlari.**

Fe’l va uning funksional shakllari. Tuslanish tizimi. Tuslovchi affikslarning uch tipi. Mayl va zamon shakllari. O‘zbek shevalarida adabiy tildan jiddiy farq qiluvchi fe’l shakllari. So‘z yasalishi.

## **2.10-mavzu. O‘zbek shevalari morfologiysi va sintaksisi.**

O‘zbek shevalarida sifat, son, olmosh, yordamchi so‘zlar, undov va mimemalarining qollanish xususiyatlari. O‘zbek shevalari sintaksisi bo‘yicha ma’lumot.

## **2.11-mavzu. O‘zbek shevalari leksikasi va leksikografiysi.**

O‘zbek shevalarining tarixiy va zamonaviy leksik qatlamlari. Shevalarning leksik normasi masalasi. Shevalar leksikasi adabiy tilning boyish manbalaridan biri ekanligi. Shevalargagina xos leksika. Shevalardagi leksik ma’no komponentlari. Ko‘chma ma’no. O‘zbek shevalari lug‘atchiligi. Lug‘at turlari, ularning tuzilishi tamoyillari.

## **2.12-mavzu. Qarluq, qipchoq, o‘g‘uz lahjalari.**

Qarluq, qipchoq, o‘g‘uz qabilalarining tarixiga oid qisqacha ma’lumot. Qarluq, qipchoq, o‘g‘uz lahjasining muhim fonetik, grammatik (morphologik, sintaktik) va leksik xususiyatlari.

### **2.13-mavzu. O‘zbek adabiy tili va shevalar.**

Milliy tilning ikki bosqichi. Adabiy til tushunchasi. Uning shakllari. Adabiy til va koyne. Adabiy tilning tayanch dialekti masalasi. Adabi til va shevalar avtonomiyasi va geteronomiyasi. Dialektizm, ularning turlari.

### **2.14-mavzu. Areal lingvistika.**

Areal lingvistika tushunchasi. Uning dialektologiya negizida paydo bo‘lganligi. Areal lingvistik aning o‘rganish metodlari. Lingvistik geografiya. O‘zbekistonda lingvistik geografiyaning rivojlantirilishi.

### **2.15-mavzu. O‘zbek shevalarining tasnifi.**

Til sistematikasi tushunchasi. Shevalarni tasnif qilish tamoyillari va uning qisqacha tarixi. Ilmiy tasnifning boshlanishi. I. I. Zarubin, K. K. Yudaxin, Ye.D. Polivanov, A.K. Borovkov, G‘.O. Yunusov, V. V. Reshetov va A. Jo‘rayev tasniflari. O‘zbek dialektologlari.

## **IV. Amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar:**

Amaliy mashg‘ulot darslarida bakalavrlar ilmiy ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanib, fan sohasidagi yangiliklar bilan amaliy mashg‘ulotlarini mazmunini boyitadilar.

### **Amaliy mashg‘ulot uchun tavsiya etiladigan mavzular quyidagicha:**

#### **Amaliy mashg‘ulot uchun mavzular**

- 3.1. Transkripsiya. Shevalardan transkripsiya yozib olingan matnlarni o‘qish.
- 3.2. Shevalardan transkripsiya yozib olingan matnlarni grafik tahlil qilish.
- 3.3. Diktofonidan matn yozishni mashq qilish.
- 3.4. Talabalarning diktofon yoki smartfondan o‘zaro bir-biridan yozib olgan materiallarini transkripsiada ko‘chirishni mashq qilish.
- 3.5. Qarluq lahjasidan yozib olingan matnlarni fonetik tahlil qilish.
- 3.6. Qarluq lahjasidan yozib olingan matnlarning leksik-semantik tahlilini amalga oshirish.
- 3.7. Qarluq lahjasidan yozib olingan matnlarni morfologik tahlil qilish.
- 3.8. Qipchoq lahjasidan yozib olingan matnlarni fonetik tahlil qilish
- 3.9. Qipchoq lahjasidan yozib olingan matnlarni leksik-semantik tahlil qilish.
- 3.10. Qipchoq lahjasidan yozib olingan matnlarni morfologik tahlil qilish.
- 3.11. O‘g‘uz lahjasidan yozib olingan matnlarni fonetik tahlil qilish.
- 3.12. O‘g‘uz lahjasidan yozib olingan matnlarni leksik-semantik tahlil qilish
- 3.13. O‘g‘uz lahjasidan yozib olingan matnlarni morfologik tahlil qilish

3.14. Shevalardan yozib olingen matnlarning sintaktik tahlilini amalga oshirish.

3.15. Shevalardan yozilgan matnlarni kompleks tahlil qilish.

**Izoh:** Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurulmalari bilan jihozlangan auditoriyada o'tkaziladi. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

#### **V. Seminar mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Seminar mashg'ulotlari talabalarini "O'zbek dialektologiyasi"ga oid ma'lumotlar bilan mustaqil tanishishga, ularni tanqidiy nuqtayi nazaridan tahlil va talqin etishga yo'naltiradi. Talabalar egallagan bilimlarini dars paytida munozara yoki ma'ruza shaklida namoyish etadi.

Seminar mashg'ulotlarida talabalar o'zbek shevalarining ilmiy muammolari to'g'risida amaliy ko'nikma va malaka hosil qilishadi.

##### **Seminar mashg'ulotlari uchun mavzular:**

- 4.1. O'zbek shevalarining fonemalar tizimi.
- 4.2. Shevalardagi fonetik jarayonlar.
- 4.3. O'zbek shevalarining kelishiklar tizimi.
- 4.4. O'zbek shevalarda egalik shakllari.
- 4.5. Shevalarda fe'ning funksional shakllari.
- 4.6. Shevalarda zamon kategoriysi.
- 4.7. Shevalarda olmoshlarning qo'llanishi.
- 4.8. Ayrim olingen shevaning leksik xususiyatlari.
- 4.9. Shevalarda bog'lovchi, ko'makchi va yuklamalarning qo'llanishi.
- 4.10. Shevalarda undov, taqlid va modal so'zlarning qo'llanishi.
- 4.11. Shevalarning leksik va leksikografik xususiyatlari.
- 4.12. Dialektal lug'atning tarkibi va lug'atga kiritiladigan so'zlar tahlili.
- 4.13. Qishloq xojaligi, chorvachilikka va kasb-hunarga oid leksika.
- 4.14. Shevalardagi tavtologik bo'laklarning sintaktik xususiyatlari.
- 4.15. Badiiy asarlardagi dialektizmlarning tahlili.

Seminar mashg'ulotlar multimedia qurulmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhg'a bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda

munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi, shuningdek, kino san'atidagi ma'lum shevaga xos bo'lgan kadrlarni tahlil qilish maqsadga muvofiq.

**Izoh:** Mazkur ro'yxatdagi mavzulardan seminar mashg'ulotlari uchun ajratilgan soatlar hajmiga mos holda foydalanish tavsiya etiladi.

## **VI. Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni**

### **Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular**

Mustaqil ta'lim talabalarga avvaldan berib qo'yiladigan mavzular asosida tashkil etiladi. Talabalarning o'zlashtirishlari amaliy mashg'ulot va seminar mashg'ulotlari davomida nazorat qilinadi.

Mustaqil ishni tayyorlashda fanning xususiyatlарини hisobga olган holda, quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik;
- seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik;
- darslik va o'quv qo'llammalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallар bo'yicha ma'ruza qismimi o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlari bo'yicha fan bo'limlari yoki mavzulari ustida ishslash;
- o'quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fan bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish metodlaridan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;
- masofaviy ta'lim.

### **Mustaqil ta'lim uchun mavzular:**

- 5.1. O'zbek xalq shevalarining o'rganilish tarixi.
- 5.2. Transkripsiya va uning turlari, ahamiyati.
- 5.3. Sheva vakillaridan yozib olingan dialektal matnlar tahlili.
- 5.4. O'zbek shevalarining rus olimlari tomonidan tadqiqi.
- 5.5. O'zbek shevalarining o'zbek olimlari tomonidan tadqiqi.
- 5.6. O'zbek shevalari bo'yicha amalgaga oshirilgan ishlarni tahlil qilish.
- 5.7. O'zbek shevalarining fonetik xususiyatlari.
- 5.8. Shevalarning morfologik xususiyatlari.
- 5.9. O'zbek xalq shevalarining leksik xususiyatlari.
- 5.10. Sheva(lar) lug'atlarining tuzilishi xususiyatlari.
- 5.11. Shevalarning leksik va leksikografik xususiyatlari.
- 5.12. Shevalarning sintaktik xususiyatlari.
- 5.13. Qarluq-chigil-uyg'ur lahjasining muhim xususiyatlari.
- 5.14. Qipchoq lahjalarining asosiy xususiyatlari.
- 5.15. O'g'uz lahjalarining muhim xususiyatlari.
- 5.16. O'zbek xalq shevalarining areal-hududiy xususiyatlari.

- 5.17. Adabiy tilga dialektizmlarni olib kirish yo'llari.
- 5.18. O'zbek shevalarining kasb- hunar doirasida qo'llanilishi.
- 5.19. Shevalar lug'ati manbalari.
- 5.20. Dialektal lug'atlarning adabiy til lug'atlari bilan aloqadorligi.
- 5.21. O'zbek adabiy tilining tayanch shevalari fonetikasi va ularning adabiy tilga munosabati.
- 5.22. O'zbek dialektal leksikografiyasi. Shevalar lug'ati.
- 5.23. Muayyan shevada kelishik va egalik shakllari.
- 5.24. Muayyan shevalarda mustaqil va yordamchi so'z turkumlarining o'ziga xos xususiyatlari.
- 5.25. Fe'l zamonlaridagi o'ziga xosliklar.
- 5.26. Muayyan shevada fe'lning funksional shakllari.
- 5.27. O'zbek tilining qarluq lahjasiga xos dialektal xususiyatlar.
- 5.28. O'zbek tilining qipchoq va o'g'uz lahjasiga xos dialektal xususiyatlar.
- 5.29. O'zbek shevalarining sohalar bo'yicha guruhanishi.
- 5.30. O'zbek xalq shevalarida qishloq xojaligiga oid leksika.
- 5.31. O'zbek xalq shevalarida chovchilikka oid leksika.
- 5.32. O'zbek xalq shevalarida kasb-hunarga oid leksika.
- 5.33. O'zbek xalq shevalarida chevarchilik, bichish-tikishga oid leksika.
- 5.34. Xalq og'zaki ijodi namunalardan ertak, maqol, topishmoqlardan o'zbek xalq shevalariga oid so'zlarning qo'llanilishi.
- 5.35. Xalq og'zaki ijodi namunalardan tez aytish, yor-yor, yig'iyo'qlov va boshqalarda shevaga oid so'zlarning qo'llanishi.
- 5.36. "O'zbek dialeklogiyasi" fanining maqsad va vaifalari.
- 5.37. "O'zbek dialektologiyasi"ning asosiy tushunchalar.
- 5.38. O'zbek shevalarining tarixiy oqimi.
- 5.39. O'zbek shevalarida fonetik qonunlar.
- 5.40. O'zbek shevalarida fonetik jarayonlar.
- 5.41. O'zbek tilining dialektal bo'linishi.
- 5.42. O'zbek dialektologiyasining fan sifatida tashkil topishi.
- 5.43. Lahjalarning boshqa til kategoriyasiga munosabati. Milliy til va mahalliy lahjalar.
- 5.44. "O'zbek dialektologiyasi" fanini o'qitishda axborot texnologiya vositalaridan foydalanishnng amaliy ahamiyati.
- 5.45. Milliy musiqa va kino san'atida shevaga oid birliklarning qo'llanilishining amaliy-nazariy asoslari.

	<p><b>Izoh:</b> Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsija etiladi. Bu mavzularni talabalarga aniqlashtirib berilishi shart.</p>
3.	<p><b>VII. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</b></p> <p>"O'zbek dialektologiyasi"ning nazariy va amaliy muammolari, uning filologik fanlar tizimidagi o'rni, terminologiyasi, o'zbek tilining dialektal tuzilishi, shevalarni o'rganishning ahamiyati va metodikalarini bo'yicha tasavvur va bilimlarga ega bo'lish;</p> <p>- o'zbek shevalaridagi o'ziga xos fonetik, leksik va grammatic xususiyatlarni o'zlashtirish, sheva vakillaridan matnlarni yozib olish, ularga ishlov berish, yozuv tiliga ag'darish, dialektal farqlarni aniqlash ko'nikmalariga; respondentlarni tanlay olish, ulardan matnni yozib olish metodikasini egallash, materiallarni ilmiy tahlil qilish, uni ilmiy ish sifatida shakllantirish, ilmiy adabiyotlarni tahlil qila olish va ularni o'z ilmiy ishiga tatbiq eta olish va talabalar konferensiyasi hamda seminarlarida taqdim eta olish malakalariga ega bo'lishi lozim.</p>
4	<p><b>VIII.Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>✓ ma'ruzalar;</li> <li>✓ interfaol keys-stadilar;</li> <li>✓ seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>✓ guruhlarda ishlash;</li> <li>✓ taqdimotlarni qilish;</li> <li>✓ individual loyiҳalar;</li> <li>✓ jamoa bo'lib ishslash va himoya qilish uchun loyiҳalar.</li> </ul>
5.	<p><b>IX. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p>
6.	<p><b>IX. Adabiyotlar</b></p> <p><b>Asosiy adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. - Toshkent: Nodirabegim, 2021. 176 bet.</li> <li>2. Enazarov T. J., Karimjonova A.V. O'zbek dialektologiyasi. T.: Universitet, 2012. 192 bet.</li> <li>3. Тўйчибоев Б., Ҳасанов Б. Ўзбек диалектологияси. -Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мөроси нашриёти, 2004. 110 bet.</li> </ol>

1. Решетов В. В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. -Тошкент: Ўқитувчи, 1978. 232 бет.
2. Шерматов А. Қашқадарё обlastидаги ўзбек халқ шевалари. -Тошкент: Фан, 1978.
3. Шерматов А. Қашқаларё обlastидаги ўзбек халқ шевалари атласи. - Тошкент: Фан, 1979.
4. Шоабдурахмонов Ш. Ш. Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари. - Тошкент, 1962.
5. Ўзбек халқ шевалари лугати. -Тошкент: Фан, 1971.
6. Ўзбек шевалари лексикасиги. -Тошкент: Фан, 1989.
7. Ўзбек диалектологиясининг долзарб муаммолари. -Тошкент, 2018.

**Axborot manbalar**

<https://www.researchgate.net/publication>  
<https://unibook.upjs.sk>  
<c:/itools/wms/cup-nev>  
<https://bigenc.ru>  
<https://studfile.net>

	<b>Termiz davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.</b>
	O'quv dasturi Termiz davlat universiteti o'quv-uslubiy Kengashining 2024-yil
	“ <u>26</u> ” - <u>06</u> dagi <u>11</u> -sonli yig'ilish bayoni bilan tasdiqlangan.
	O'zbek filologiyasi fakultetining 2024-yil “ <u>12</u> ” - <u>06</u> dagi <u>10</u> -sonli
	yig'ilish bayoni bilan ma'qullangan.
	“O'zbek tilshunosligi” kafedrasining 2024-yil “ <u>7</u> ” - <u>06</u> dagi <u>20</u> -sonli
	yig'ilish bayoni bilan ma'qullangan.
	<b>Fan/modul uchun mas'ullar:</b>
	X. Fayziyeva – Termiz davlat universiteti “O'zbek tilshunosligi” kafedrasini o'qituvchisi, f.f.f.d (PhD)
	M.Xolova – Termiz davlat universiteti “O'zbek tilshunosligi” kafedrasini o'qituvchisi, f.f.f.d (PhD)
	<b>Taqrizchilar:</b>
	X. Jabborov – Qarshi davlat universiteti “O'zbek tilshunosligi” kafedrasini filologiya fanlari doktori, professor v.b.
	N. Yo'ldasheva – Qarshi davlat universiteti “O'zbek tilshunosligi” kafedrasini dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.